

**МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА ТАЙЯРЛОВ ГУРУХИ  
ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИНИНГ КРЕАТИВ ФИКРЛАШНИ  
О'СТИРИШДА STEM ТА'ЛИМИНИНГ О'РНИ**

**Jumanova Shahnoza Ikromjonovna**  
Qo‘qon universiteti dosenti, v.b (PhD)

**Asqarova Dilafruzxon**  
Qo‘qon universiteti magistranti

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola maktabgacha yoshdagи bolalarda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun STEM ta’limining imkoniyatlarini o‘rganildi. Bolalarda qiziqish, tasavvur va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda STEM kontseptsiyalarini va amaliy o‘rganish tajribasiga erta ta’sir qilish muhimligi, STEM ta’limi 21-asrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ijodiy fikrlash qibiliyatlarini rivojlantirish uchun boy muhit yaratishi tahlili yoritib berilgan. Maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarining kreativ fikrlashlarini oshirishda STEM ta’limining hamaiyati va tarbiyalanuvchilarining ijodiy fikrlashlarini o’stirishda STEM ta’limidan foydalanish tahlil ostiga olingan.

**Kalit so‘zlar:** STEM, ijodiy fikrlash, kreativ, tayyorlov guruhi, pedagogik jarayon, ob’yekt, fikrlash, texnologiya.

**АННОТАЦИЯ**

В этой статье исследовался потенциал STEM-образования для развития навыков творческого мышления у детей дошкольного возраста. Подчеркивается важность раннего знакомства с концепциями STEM и практическим опытом обучения для развития у детей любознательности, воображения и навыков решения проблем, а также анализируется, как образование STEM создает богатую среду для развития навыков творческого мышления, необходимых для достижения успеха в 21 веке. Анализируется значение STEM-образования в повышении творческого мышления учащихся дошкольных образовательных учреждений и использование STEM-образования в повышении творческого мышления учащихся.

**Ключевые слова:** STEM, творческое мышление, творческая, подготовительная группа, педагогический процесс, предмет, мышление, технология.

## ABSTRACT

This article explored the potential of STEM education to develop creative thinking skills in preschool children. The importance of early exposure to STEM concepts and hands-on learning experiences in developing children's curiosity, imagination, and problem-solving skills is highlighted, with an analysis of how STEM education creates a rich environment for developing the creative thinking skills needed to succeed in the 21st century. . The importance of STEM education in increasing the creative thinking of students in pre-school educational institutions and the use of STEM education in increasing the creative thinking of students are analyzed.

**Keywords:** STEM, creative thinking, creative, preparatory group, pedagogical process, object, thinking, technology.

Respublikamizda maktabgacha ta'limga qaratilayotgan e'tibor ostida MTT tarbiyalanuvchilarining yuksak bilimli va kreativ, ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash masalalari turadi. Jumladan Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlarida “Maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzlusiz ta'lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida:

Ixtisoslashtirilgan loyiha-izlanish institutini davlat unitar korxonasi shaklida tashkil etish hamda Institutni maktabgacha ta'lim tizimi buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq investitsiya loyihalari bo‘yicha, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo‘yicha loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda bosh loyiha tashkiloti sifatida belgilash;

Infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha injiniring kompaniyasini davlat unitar korxonasi shaklida tashkil etish hamda Injiniring kompaniyasiga maktabgacha ta'lim tizimi obyektlarini qurish, kapital ta'mirlash va jihozlash bo‘yicha buyurtmachi funksiyalarini yuklash hamda kompaniya xizmatlari bilan bog‘liq xarajatlarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish, kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish qiymatiga kiritish;

Yuridik shaxs tashkil qilmasdan Maktabgacha ta'limni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish” maqsad qilingan

MTT tarbiyalanuvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish tarbiyachilar oldida turgan muhim vazifa ekan, biz, avvalo, tarbiyachilarning psixik rivojlanishiga e’tibor

qaratmog‘imiz lozim. Bizni maktabgacha yoshdagi bo‘lgan bolalarning psixologiyasidagi shunday jihat e’tiborimizni qaratdikki, ular aynan shu davrda o‘z qiziqishlari, yetakchi faoliyati bo‘lgan syujetli-rolli o‘yinlardagi harakatlari bilan birgalikda ijtimoiy dunyoning, avvalo, ota-onasi oilasidagi rollarga va o‘zaro munosabatlarga e’tiborli bo‘lib, aynan ota-onalikka xos qiliqlarni o‘zlashtirishga kirishadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyatlar – o‘yin, rasm chizish, plastilin yoki loydan biron narsa yasash, aplikatsiya, qurish-yasash va shu kabilardan iborat bo‘lishi mumkin. Bolalar odatda katta kishilarning topshiriq va takliflari bilan ma’lum faoliyatga kirishadilar. Ayrim hollardagina bolalarning o‘zlari mustaqil ravishda u yoki bu faoliyatni bajaradilar. Har ikki holatda ham bolalar faoliyati ma’lum natijaga ega bo‘ladi. Faoliyat mahsuloti bolalar faoliyatining natijasiga qarab o‘rganiladi. Ko‘pincha bolalar faoliyatining mahsuli ular chizgan rasmlarga, loy yoki plastilindan yasalgan narsalarga qarab o‘rganiladi.

Ma’lumki, bolalarning chizgan rasmlarida ular idrokining xususiyatlari va ongida yuzaga kelayotgan turli tasavvurlar hamda atroflaridagi narsa va hodisalarga bo‘lgan munosabatlari o‘z ifodasini topadi. Ana shu jihatdan bolalarning chizgan rasmlaridan faoliyat mahsulini o‘rganish sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Turli yoshdagi bolalarning ishlagan rasmlarini analiz qilish orqali ularning ayni chog‘dagi ehtiyojlari, mayl-istiklari, qiziqishlari, qobiliyat va layoqatlarini, bola yashayotgan oila muhitini ham o‘rganish mumkin. Shu sababli bu metodlardan ham bolalar psixologiyasida keng foydalaniladi.

Tarbiyalanuvchilarning ijodiy va kreativ fikrlashlarini o‘stirishda STEM texnologiyasining ahamiyati kattadir.

“STEM” inglizcha “Science, Technology, Engineering, Maths” so‘zlarining qisqartmasi bo‘lib STEM fanlari ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika fanlarini o‘z ichiga oladi va bu fanlarni yaxlit tarzda o‘qitishni anglatadi.

Bu yo‘nalishdagi o‘qitishda fanni yaxshi o‘rganish, muammoni hal qilish va mantiqiy fikrlashni o‘zlashtirishga urg‘u beriladi. STEM o‘quvchilarga, ishda va turli sohalarda muvaffaqiyat qozonish imkonini taqdim etadi.

Stem ta’limining MTT larda qo‘llanilishi tarbiyalanuvchilarning fikr doirasini kengayishiga, kreativ fikrlashining oshishi hamda ma’lum bir muammoli vaziyatlarga ijodiy yondoshib masalani ijobiy hal qilish ko‘nikmasining oshishiga xizmat qiladi. STEM ta’limining O‘zbekiston ta’limida qo‘llanilishi ham yosh avlodning jahon ta’lim standartlariga javob bera oladigan, raqobatbardosh qilib tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

STEM ta’limi maktabgacha ta’limning tayyorgarlik guruhi o‘quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Fan, texnologiya, muhandislik va matematika fanlarini amaliy, izlanishga asoslangan o‘rganish tajribasiga

integratsiyalashgan holda o‘qituvchilar yosh o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini samarali rivojlantirishlari mumkin. STEM ga asoslangan tadbirlarni amalga oshirish bolalarni izlanish, tajriba va muammolarni hal qilishga undaydi, bu esa tanqidiy fikrlash, turlicha fikrlash va innovatsion ko‘nikmalarni rivojlantirishga olib keladi. Bundan tashqari, STEM ta’limi bolalarga rasm chizish, qurish va hikoya qilish kabi o‘zini namoyon qilishning turli shakllari orqali o‘z tasavvurlari va ijodini ifoda etish uchun platforma yaratadi.

Bolalar STEMga asoslangan faoliyat bilan shug‘ullanar ekan, ular atrofdagi dunyoni chuqurroq tushunishadi, bu ularga turli bilim sohalari o‘rtasida aloqa o‘rnatish imkonini beradi. Ta’limga bunday yaxlit yondashuv ijodiy fikrlash uchun zarur bo‘lgan qiziqish va izlanish istagini uyg‘otadi. Erta yoshdagi bolalar ta’limida ijodkorlikni tarbiyalash orqali biz innovatorlar va muammolarni hal qiluvchi kelajak avlodlar uchun poydevor qo‘yamiz. Bolalar STEMga asoslangan faoliyat bilan shug‘ullanar ekan, ular atrofdagi dunyoni chuqurroq tushunishadi, bu ularga turli bilim sohalari o‘rtasida aloqa o‘rnatish imkonini beradi. Ta’limga bunday yaxlit yondashuv ijodiy fikrlash uchun zarur bo‘lgan qiziqish va izlanish istagini uyg‘otadi. Erta yoshdagi bolalar ta’limida ijodkorlikni tarbiyalash orqali biz innovatorlar va muammolarni hal qiluvchi kelajak avlodlar uchun poydevor qo‘yamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 30.09.2018 yildagi PQ-3955-sonli qarori.
- 2.D.O. Madgafurova Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari” K,D.P.I Boshlangich ta’lim fakulteti. Fakultetlararo ped.psixologiya kafedrasi katta o‘qtuvuchisi Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi in-academy.uz/index.php/si 124-b .
- 3.Jalilova S.X. A-74 Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / S.X. Jalilova, S.M. Aripova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; O‘rta maxsus, kasbhunar ta’limi markazi. – Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2017. – 496 b, 37-38-betlar.
4. Ikromjonovna, J. S. (2023). The role of folk tales and epic motives in the poetry of Usman Azim. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
5. JS Ikromjonovna. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKIOTLARIDA BOLALARNING O‘YIN KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 586-588
6. Xurshidaxon, A., & Ikromjonovna, J. S. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKIOTLARIDA BOLALARNI ATROF-MUHITNI ASRAB-AVAYLASH

VA G ‘AMXO ‘RLIK KO ‘RSATISHGA O ‘RGATISH. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 551-553.

7. Jumanova , S. (2023). Autumn motif in the poetry of Usman Azim. Scientific Journal of the Fergana State University, 28(2), 29.

8. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548.

9.<https://prep.uz/news/savollar/stem-ta-lim-tizimi-nima-o-zi> murojaat sanasi: 23.11.2023.